



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

orqali isbotlanganki, bunday travmalar o'ziga past baho, umidsizlik va ijtimoiy ajralish hissini kuchaytiradi. Shunday ekan, oila muhitida mehr, hurmat va muloqot madaniyatini rivojlantirish — o'smirlar suitsidal xatti-harakatlarini profilaktika qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar nashriyoti, 2019. – 284 b.
2. Durkheim É. Le Suicide: Étude de sociologie. – Paris: Félix Alcan, 1897. – 412 p.
3. Beck A.T. Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. – New York: Penguin Books, 1976. – 356 p.
4. Bowlby J. Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. – New York: Basic Books, 1969. – 358 p.
5. To'xtayeva D. Yoshlar psixologiyasi va suitsidal xulq. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2021. – 198 b.
6. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
7. UNICEF. State of the World's Children 2022: Children in a Digital World. – New York, 2022. – 185 p

AGRESSIVLIKNING BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI O'RNI VA OLDINI OLISH USULLARI

Sattorova Mahliyo Burxanovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining

Jizzax filiali o'qituvchisi

Eshmurodova Umida Qaxramon qizi, Qurbonboyeva Ruxshona

Boboxonovna, Xaydarova Sevinch Safar qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining

Jizzax filiali talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bolalarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, uning biologik, psixologik va ijtimoiy omillari keng yoritilgan. Shuningdek, agressivlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, oilaviy muhit, ta'lim jarayoni va zamonaviy axborot vositalarining roli tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: Agressivlik, bola psixologiyasi, stress, tarbiya, ijtimoiy muhit, emotsiya, profilaktika

Hozirgi globallashuv davrida bolalarda agressiv xulq-atvorning ortib borishi jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qaralmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bolalar va o'smirlar orasida agressivlik va zo'ravonlik holatlari yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa jamiyat barqarorligi va sog'lom avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mashhur psixologlar — Zigmund Freud agressiyani insonning tug'ma instinkti sifatida ko'rgan bo'lsa, Albert Bandura uni ijtimoiy

o'rganish natijasi deb hisoblaydi. Lev Vygotskiy esa bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Shu sababli agressivlikni tushunish uchun kompleks yondashuv zarur.[1]

Agressivlik (agressiya) — bu shaxsning boshqa odamga yoki o'ziga nisbatan zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakati yoki ichki psixologik holatidir. Psixologiya fanida agressiya murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida qaraladi, chunki u nafaqat tashqi harakatlarda, balki ichki hissiyot va fikrlarda ham namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda agressivlikka turlicha ta'rif berilgan. Masalan, psixoanaliz asoschisi Zigmund Freud agressiyani insonning tug'ma instinktlaridan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, agressiya — bu inson ichidagi destruktiv energiyaning tashqi ko'rinishidir.[2] Boshqa bir mashhur olim Albert Bandura esa agressiyani ijtimoiy o'rganish natijasi deb izohlaydi. Ya'ni bola kattalarning xatti-harakatlarini kuzatadi va ularni takrorlaydi. Agressivlik ko'pincha quyidagi holatlarda yuzaga keladi: Inson o'z maqsadiga erisha olmaganda (frustratsiya) adolatsizlikni his qilganda qo'rquv yoki xavotir kuchayganda e'tibor yetishmaganda.

Bolalarda agressivlik quyidagi belgilar orqali aniqlanadi:

- tez jahli chiqishi
- urish, turtish, narsalarni sindirish
- baqirish, haqorat qilish
- boshqalarga zarar yetkazishga intilish
- o'zini tutolmaslik

Ba'zi bolalarda agressiya yashirin shaklda ham bo'ladi, ya'ni ular ochiq urushmaydi, lekin ichida g'azabni yig'ib yuradi.

Agressivlikning psixologik mexanizmi. Agressiya ko'pincha ichki ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi. Bola o'z his-tuyg'ularini tushunmaganda yoki ifoda eta olmaganda, bu energiya agressiya sifatida chiqadi. Masalan:

bola xafa → lekin ayta olmaydi → jahli chiqadi → uradi

bola qo'rqadi → himoyalaniş uchun agressiv bo'ladi

Bu jarayon psixologiyada “emotsional boshqaruv yetishmasligi” deb ataladi.

Bolalarda agressivlikning kelib chiqish sabablari. Agressivlikning paydo bo'lishi birgina sabab bilan bog'liq emas — bu ko'p omilli jarayon. Bular:

Biologik omillar: nerv tizimining tez qo'zg'aluvchanligi, gormonal o'zgarishlar (ayniqsa o'smirlik davrida), temperament (xolerik bolalarda agressiya tezroq namoyon bo'ladi), ba'zi nevrologik buzilishlar, Freyd nazariyasiga ko'ra, agressiya insonning tug'ma instinktlaridan biridir.

Psixologik omillar: Past o'zini baholash — bola o'zini himoya qilish uchun agressiv bo'lib qoladi; E'tibor yetishmasligi — bola agressiya orqali e'tibor qozonadi; Stress va qo'rquv — ichki bosim tashqi agressiya sifatida chiqadi; Frustratsiya (maqsadga erisha olmaslik) — g'azabni keltirib chiqaradi; Emotsiyalarni boshqara olmaslik.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z hislarini ifoda eta olmaydigan bolalar ko'proq agressiv bo'ladi. Agressivlikni oldini olish uchun tabiat bilan muloqot qilish bola uchun eng muhimi hisoblanadi shuningdek bu uning psixologik holatini ham barqaror bo'lishiga sabab bo'ladi shu bilan birgalikda uning nafaqat ruhiyatiga balki sog'lig'iga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Farzand bilan yetarlicha vaqt o'tkazmaslik uning

muvaffaqiyatiga befarqlik. Kattalarning munosabatlari qo'pol so'zlar, ko'p buyruq berish, arzimagan narsaga kamsitish, farzandini boshqa oila farzandi bilan taqqoslash. Agressiyadan qutulish uchun ishlash, bolada g'azablanishga nima sabab bo'lishini to'g'ri aniqlash muammo psixologik yoki jismoniy ekanligini aniqlash va tuzatishning samarali usullarini tanlash ma'lum bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassisning vazifasidir. Agressiyani oldini olish sabablari stressni kamaytirish, ijobiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, oilaviy qo'llab-quvvatlash, sport bilan shug'ullanish, san'at va badiiy ijod orqali o'zini ifoda etish, hamda psixologik yordam olish kabi omillarga bog'liq bo'lib, bu barcha jihatlar sog'lom shaxs rivojlanishiga yordam beradi. Agressiyani oldini olish uchun psixologik, ijtimoiy va ta'limiy yondashuvlar qo'llaniladi, jumladan: individual psixoterapiya (art-terapiya, ijodkorlik), stressni boshqarish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, oilaviy muhitni yaxshilash, empatiya (hamdardlik)ni oshirish, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi manbalardan uzoq turish va sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish, sababi bu muammo shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, uni oldini olishning sabablari esa xavfsizlikni ta'minlash, sog'lom jamiyat yaratish va inson munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan. Stressni kamaytirish usullarini o'rganish (meditatsiya, yoga, sport).

Agressiv bola bu o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiyinchilikka duch keladigan, nizoli vaziyatlarda zo'ravon yoki tajovuzkor xatti-harakatlar orqali javob beradigan shaxsdir. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, agressiv xatti-harakatlar o'z vaqtida aniqlanib, to'g'ri psixologik va pedagogik yondashuv qo'llanilmasa, ular barqaror xulq modeliga aylanishi mumkin. Shu sababli agressiv bolalar bilan ishlashda erta diagnostika, emotsional nazoratni rivojlantirish, ijobiy ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va oila hamda ta'limmuassasasi o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Nishonova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Furmanov I.A Bolalarning tajovuzkorligi. Psixodiagnostika va tuzatish. Minsk, 1996 yil.
3. G'.B. Shoumarov. Oila psixologiyasi. — T.: Sharq, 2008.
4. E. G'oziev. Umumiy psixologiya. — T.: O'qituvchi, 2002.
5. D.B. Elkonin. Bolalar psixologiyasi taraqqiyoti. — Moskva, 1989.
6. L.S. Vigotskiy. Bolalik davrida psixik rivojlanish. — Moskva, 1991.
7. A.V. Petrovskiy. Yosh va pedagogik psixologiya. — Moskva, 1979.
8. R.S. Nemov. Psixologiya. 1-kitob. — Moskva: Владос, 2003.
9. Sh.A. Do'stmuhamedova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. — T.: Fan, 2019.
10. F.I. Haydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. — T.: Fan va texnologiya, 2009.

D. KAHNEMAN IKKI TIZIM NAZARIYASINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Hatamov Sirojiddin Melixozi o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining